

Ro‘zieva Nazira Ochilovna (o‘qituvchi)

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

E-mail: m-biologiya@mail.ru E-mail: naziraochilovna87@gmail.com

Annotatsiya: *Qishloq xo‘jaligini yuksaltirish ishchilar sinfi bilan dehqonlarning mehnati samarasidir. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda mukammal agrotexnologiya mintaqa, muayyan hudud, xo‘jalik, almashlab ekish dalasining tuproq-iqlim sharoitlari va ekiladigan o‘simglik xususiyatlariga, shuningdek, xo‘jalikning ishlab chiqarish resurslariga mos kelishi kerak. Dehqonchilikning asosiy vazifasi ekinlarni yetishtirishning ilmiy asoslangan jadal texnologiyalari negizida don, sabzavot, meva va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishdan iborat.*

Аннотация: *Развитие сельского хозяйства является результатом труда рабочего класса и крестьян. При выращивании сельскохозяйственных культур совершенная агротехника должна соответствовать региону, конкретной местности, хозяйству, почвенно-климатическим условиям поля севооборота и особенностям возделываемых растений, а также производственным ресурсам хозяйства. Основной задачей сельского хозяйства является увеличение производства зерна, овощей, фруктов и другой продукции на основе научно обоснованных интенсивных технологий выращивания сельскохозяйственных культур.*

Abstract: *The upliftment of agriculture is the labor of the working class and the peasants. For the perfect agrotechnology in the cultivation of agricultural crops, it is necessary to match the soil-climatic conditions of a certain region, farm, crop rotation field and the plants, production, production resources of the farm. It consists in increasing the production of grains, vegetables, fruits and*

other products on the basis of efficient and rapid technologies of production of scientific productions based on agriculture.

Kalit so‘zlar: melioratsiya, resurs, agrotexnologiya, almashlab ekish, ekin, defoliantlar, desikantlar, turg‘un dehqonchilik, lalmi, chala cho‘l, quruq dasht.

Ключевые слова: мелиорация, ресурс, агротехника, севообором, сельскохозяйственные культуры, дефолианты, десиканты, устойчивое земледелие, засуха, сухая пустыня, сухая степь.

Key words: amelioration, resource, agrotechnology, crop rotation, crops, defoliants, desiccants, sustainable agriculture, drought, semi-desert, dry steppe.

Ayni vaqtda u keng istemol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoatning bir qancha tarmoqlari uchun xom-ashyoni qishloq xo‘jaligi sohasi yetkazib beradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi xom-ashyosining ulushi (qiymat jixatidan) ip-gazlama sanoatida barcha moddiy xarajatlarning 60 foizini, qandolat sanoatida salkam 70 foizni, yog‘ va sut sanoatida qariyb 80 foizni tashkil qiladi. Bularning hammasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni ko‘ngildagiday sur’atlar bilan rivojlanmasa, xalq turmush darajasini oshirishning hech qanday eng yaxshi rejasini ham ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligining ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, xalq xo‘jaligida band bo‘lgan xodimlarning 27 foizi shu sohada mehnat qiladi. Qishloq xo‘jaligida mamlakat milliy daromadining taxminan uchdan bir qismi yaratiladi. Shu sababli mamlakat butun iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari, mehnatkashlar farovonligini oshirish ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir. Shu bilan birga sotsial-siyosiy jihatni ham xisobga olish muhimdir. Qishloq xo‘jaligini yuksaltirish ishchilar sinfi bilan dehqonlarning mehnati samarasidir. Ekinlarni parvarishlash (tuproqqa ishlov berish, oziqlantirish, begona o‘tlarni yo‘qotish, ekinni zararkunanda hasharotlardan himoya qilish, defoliantlar va desikantlar qo‘llash), hosilni yig‘ib-terib olish (asosiy va ikkilamchi mahsulotlarni yig‘ib-terib olish muddatlari va uni tashkil qilish, dalani o‘simlik qoldiqlaridan tozalash, hosil yig‘ib olingandan keyin yerni haydash); yig‘ib olingan hosilga dastlabki

ishlov berish va boshqalar dehqonlarning asi mehnati natijasidir. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda mukammal agrotexnologiya mintqa, muayyan hudud, xo‘jalik, almashlab ekish dalasining tuproq-iqlim sharoitlari va ekiladigan o‘simlik xususiyatlariga, shuningdek, xo‘jalikning ishlab chiqarish resurslariga mos kelishi kerak. Dehqonchilikning asosiy vazifasi ekinlarni yetishtirishning ilmiy asoslangan jadal texnologiyalari negizida don, sabzavot, meva va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishdan iborat. Tuproq, joy, iqlim sharoitlarining xilma-xilligiga qarab dehqonchilikda ekiladigan ekinlar, tuproqqa ishlov berish usullari katta farqlarga ega. Namgarchilik yetarli bo‘lgan mo‘tadil mintaqalarda turg‘un dehqonchilik, qurg‘oqchilik hududlarida sug‘orma dehqonchilik, nam subtropik va tropiklarda 2-3 marta hosil yetishtiriladigan yil bo‘yi dehqonchilik paydo bo‘lgan. Shu munosabat bilan har bir mintqa uchun dehqonchilik tizimi ishlab chiqiladi. Shimoliy yarimsharda dehqonchilikning quyidagi turlari paydo bo‘lgan:

- Turg‘un dehqonchilik — tuproq-iqlim sharoitlari turli xil asosiy ekinlarni sug‘ormasdan yetishtirish imkonini beradigan hududlarda;
- Qurg‘oqchilik dehqonchilik — ob-havo sharoitlari, atmosfera yog‘inlari beqaror bo‘lgan dashtlarda;
- Lalmi dehqonchilik — qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish faqat atmosfera yog‘inlariga bog‘liq bo‘lgan, sug‘orilmaydigan yerlarda;
- Sug‘orma dehqonchilik — cho‘l, chala cho‘l va quruq dasht hududlarda;
- Tog‘ dehqonchilik — tuprog‘i kam taraqqiy etgan, ammo tabiiy unumdarligi yuqori bo‘lgan tog‘li hududlarda;
- Qutb dehqonchilik — chekka shimol mintaqasida.

Qishloq xo‘jaligi – aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy manbadir.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dehqonchilik sohasini rivojlantirishga e’tibor qaratilsa natijada dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari sifati yaxshilanadi tuproq unumdarligi ko‘tariladi, madaniyligi

yaxshilanadi o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotini yahshilaydi. Qishloq xo'jaligini imkon qadar mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolashtirish va melioratsiyalash asosida jadal rivojlantirish respublikamiz agrar siyosatining asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.J. Sattorov, S. Sidiqov, S. Abdullayev, A. Ergashev, Z. Xaidmuhamedova, Ya. Kulmurodova, U. Qosiraov, N. Akbarov AGROKIMYO O 'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta 'lim vazirligi tomonidan «Tuproqshunoslik» ta'lim yo'naliishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan O'zRFA akademigi, professor J.S. Sattorovning umumiyl tahriri ostida.
2. Po'latov S., Qodirova Sh., Kuchchiyev O. "Biologiya va genetika" (DARSLIK) Toshkent-2023,
3. Ro'ziyeva Nazira Ochilovna, Abdiyev Fozil Rashidovich, Po'latov Sarvar Mustafoyevich "Umumiy seleksiya va urug'chilik" (darslik) Toshkent-2023
4. D.S.Normurodov, B.X.Xalmirzaev, S.T.Sanaev, R.Raximov, K.Sh.Bozorov, Sh.I.Asatov "Himoyalangan yer sabzavotchiligi"dan amaliy mashg'ulotlar " O'quv qo'llanma " Samarqand – 2021yil.
7. B.S.Musayev, U.S.Qosimov, "Agrokimyo" Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Ikkrnchi nashri Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2016 yil.
- 8.Abdullayev S./I. Tuproq meliorasiyasi. Toshkent, Universitet, 2000.
8. Gafurova L.A., Abdullayev S. A., Nomozov X. Meliorativ tuproqshunoslik. Milliy ensiklopediya, 2004. 8. Gulyaqin N.P. Sistem a prim eneniya udobreniy. 1977.
9. Sattorov J.S. Tuproqdagi oziq elem entlar zaxirasini saqlash va ko'paytirish usullari va rezervlari. Toshkent, Agroizdat, 2004.
10. Sattorov J.S. M urakkab rel'ef sharoitidagi tuproqlarni agrokim yoviy haritalash uslubiyoti va o 'g'itlardan saniarali foydalanish. Toshkent, Fan, 2006
11. Sidiqov S., Sattorov J. Tuproqlarni agrokimyoviy xaritalash va o 'g'itlardan differensial foydalanish. Metodik ko'rsatma. Toshkent, Universitet, 1993.

12. Sidiqov S. Umumiyl dehqonchilik. Toshkent, Universitet, 2008.
13. Sidiqov S. Agrokimyoviy tekshirish usullari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Universitet, 1995.
14. Musayev B.S. Agrokimyo. Toshkent, Sharq, 2001.
15. Musayev B.S., Qosimov U.S. Agrokimyo. Cho‘lpon, 2007.